



“O‘qituvchi jamiyatdagi bajaradigan funksiyalari”

Narkuziyeva Sayyoraxon Ortiqboy qizi

Qo‘qon davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pedagog va uning obrazi, o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar va hozirgi zamon o‘qituvchisi qanday bo‘lishi kerakligi yoritib berilgan. Pedagogik mahorat o‘qituvchi sifatining muhim tarkibiy qismi. Til bilimdonligi haqida ham to‘xtalib o‘tilgan

Kalit so‘zlar: Shaxsni tarbiyalash, Y.A.Komenskiy, I.G.Pestalossi, A. Disterverg, O‘quvchilar faoliyati.

KIRISH

Respublikamiz hukumati xalq ta’limi sohasida o‘rtaga qo‘yayotgan vazifalarni bajarish ko‘p jihatdan o‘qituvchi shaxsiga bog‘liq. Yangi iqtisodiy siyosatga o‘tish sharoitida ta’lim-tarbiyadan ko‘zda tutilayotgan maqsadlarga erishish, o‘quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e’tiqodli, mehnatsevar, barkamol inson qilib o‘stirish o‘qituvchi zimmasiga yuklatilgan.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Shaxsni tarbiyalash ishi nihoyatda murakkab faoliyat jarayoni bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uning tashkil etilishi mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Dars ishlarida an’anaviy metodika bo‘yicha ko‘plab kamchiliklar haligacha yo‘qolgani yo‘q. Masalan, dars o‘tish jarayonida ma’nosini anglamay, yod olish elementlari haligacha saqlangan. Ko‘pchilik o‘qituvchilar hozirgi zamon iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy hayotni yoritib borib, yetilib qolgan muammolarni tahlil qilishga e’tibor berishmaydi, balki o‘quvchida materialning eng muhim joylarini yodlab olishni talab etadilar. Bunday dars berishdan qochish kerak. O‘quv jarayonini tashkil etishga yangicha sifat yondashuvi kerak. Shuning uchun maktabdagi formapizmni bartaraf etishga qaratilgan yangi g‘oyalar, konstruktiv holatlar pedagogik jamoatchilik tomonidan katta e’tibor bilan kutib olinmoqda. Bu haqda gapirganda, birinchi navbatda, pedagogik hamkorlik haqida aytish o‘rinli. Bunday pedagogik hamkorlikning mualliflari o‘qituvchi-novatorlar V. F. Shatalov, ye. N. Lisenkova, P. I. Volkov, M. P. Shetinin va boshqalar haqida gapirish mumkin. Pedagogik hamkorlik metodikasiga tayanib ishlansa, ancha yengil bo‘ladi.

TADQIQOT NATIJALARI

Y.A.Komenskiy o‘qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo‘lishi maqsadga muvofiqigini ta’kidlaydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o‘z ishini sevuvchi, o‘quvchilarga mexr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg‘otuvchi, o‘quvchilarni o‘z ortidan ergashtiruvchi va diniy e’tiqodni shakllantiruvchi.

I.G.Pestalossi o'qituvchining kasbiy sifatlariga baʼo berish bilan birga, asosan, uning xalq ta'limi tarmog'ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to'xtalib o'tadi.

A. Disterverg o'qituvchining ta'limdagi roliga yuqori baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi o'quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O'qituvchi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini ta'kidlab o'tgan. Pedagog olim Djon Lokk o'qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlarini ishlab chiqqan. Ular orasiga Mo'tadillik, Gayrat — shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi xislatlarni kiritib, o'qituvchining pedagogik faoliyatndagi rolini asarlarida yoritib bergan.

A.I.Gersen, L.N.Tolstoy, I.G.Chernishevskiy, K. D.Ushinskiy kabi rus pedagog olimlari G'arb mutafakkirlari goyalarining vorislari sifatida mazkur muammolarga o'z mulohazalarini bildirganlar. Jumladan, A.I.Gersen mulohazalariga ko'ra, o'qituvchining asosiy xislati — bu uning bolalif bilan munosabatda bo'layotganligini sezishda, bolalar ruhiy dunyosini tushuna olishida, axloqiy qobiliyatining mavjudligida, chunki u shunday iste'dodga ega bo'lmog'i zarurki, unga har qaysi o'qituvchi erisha olmaydi.

O'qituvchida pedagogik mahoratni shakllantirishning ilmiy — nazariy asoslari pedagog olim V.A. Slastyonin tomonidan ham tadqiq qilingan. U kasbiy — pedagogik tayyorgarlik, o'qituvchining shaxsi va kasbiy shakllanish yo'nalishi va bunda pedagogik mahorat to'g'risida so'z yuritib, shunday yozadi: "o'qituvchi muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, o'qituvchilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi.

O'quvchilar faoliyatini dars jarayonida boshqarish mahorati ko'plab omillarga bog'liq. Shulardan eng muhimi o'z predmetini o'quvchilarga qiziqarli qilib yetkazishdan iborat. Olimlarning takidlashicha, qiziqish shaxsning barcha psixik jarayonlari va funktsiyalari, idrok, tasavvuri, diqqati, xarakteri, fikrlashlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

MUHOKAMA

O'qituvchi jamiyat tomonidan qo'yilgan talablar bilan bir qatorda o'z faoliyatida, tevarak-atrofidagi kishilar, maktab ma'muriyati, hamkasblari, o'quvchilar va ularning ota-onalari undan nimalarni kutishini ham edan chiqarmasligi lozim. O'qituvchining o'z ishidan nimanidir kutayotganligining o'ziyoq muhim ahamiyatga egadir, mana shu tariqa kutishlar, garchand jamiyat tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan talablarga mos kelsada, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Lekin bu talablar hamma vaqt ham bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Pedagogik maxoratni egallashda pedagogika va psixologiyaga doir bilimlar katta rol o'ynaydi. Ilmiy psixologik-pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o'qituvchilarga faqat o'z sinfini hamda ayrim o'qituvchilarni o'rganishi va ularni to'g'ri harakterini tuzatishgina emas balki bolalar kollektivi va uning har a'zosining rivojlanishi istiqbollari ham belgilash imkonini beradi. O'qituvchi tarbiyachining amaliy faoliyatini bu ko'plab pedagogik vazifalarini betuxtov xal qilishdir.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O'qituvchilik sharaflı, lekin juda murakkab kasbdır. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash umumiy qonun-qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g'oyalar bayon etildi. O'quvchilarning yosh, individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktab hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xildir.

O'qituvchining pedagogik mahorati uning intellekti va madaniyatiga hamda kasbiga doir vazifalarni hal qilish qanchalik qo'lidan kelishini doimo tekshirib borishi, bola ongi hamda qalbiga eng yaxshi yo'llarini axtarish va izlab topishga ham bog'liq. O'qituvchi o'quvchiga o'zining xatti-harakati bilan ham turmush tarzi qiyofasi bilan ham ta'sir qiladi. Uning intellekti va madaniyati, haqgo'yiligi va insoniyligi uning ma'naviy sifatleri o'quvchi tomonidan etalon sifatleri qabul qilinadi. Shuning uchun ham o'qituvchi u qaysi predmetni olib borishdan qat'iy nazar yoshlar uchun murabbiylik murabbiysi, taqlid uchun yuksak namuna, o'rnak bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanishi "Metodik qo'llanma" Toshkent-2013.

2. "Zamonaviy o'qituvchining kasbiy mahorati, dars jarayonida interfaol usullardan foydalanish", Sobirov Shohjahon Achilvich.

3. "Yosh mutaxassis o'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar", Nazarva Inobat Bobomurodovna. Jabborov Saidvohid Toshqin o'g'lining amaliyot bo'yicha portfoliosi.

4. DARSNI TASHKILLASHTIRISHDA O'QITUVCHINING MAHORATI. Abdullayeva Charos Farxadovna, RESEARCH FOCUS | VOLUME 2 | ISSUE 1 | 2023 ISSN: 2181-3833 ResearchBip (14) | Google Scholar | SJIF (4.597) | UIF (8.3)

5. O'QITUVCHILIK KASBINING BUGUNGI KUNDAGI JAMIYATDAGI O'RNI Gulyamova Xosiyat Xabibullayevna, <https://uzresearchers.com/index.php/ijrs/article/view/1941>

6. O'QITUVCHILIK KASBI VA UNING JAMIYATDA TUTGAN O'RNI Sh.U.Nizamova, Solijonova Durdona, <https://www.intereuroconf.com/index.php/mppps/article/view/2756>

7. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723 Directory Indexing of International Research Journals-CiteFactor 2020-21: 0.89 DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-528-533 Academic Research, Uzbekistan 528 www.ares.uz ZAMONAVIY O'QITUVCHI VA UNING OBRAZI Dilrabo Ibrohim qizi Rahmonova